

TIJORAT BANKLARIDA TA'LIM KREDITI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402067>

Xidirova Pokiza Shamsiddinovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida ta'lim krediti amaliyotini takomillashtirish yo'llari, shuningdek ta'lim krediti amaliyotlarining zaruriyati va afzalliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim krediti, bank, risk, menejmenti, bank menejmenti

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ko'pgina muhim iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida bank tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirilishini va iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning bir butun mexanizmini yaratilishini taqozo etmoqda. Bu eng avvalambor, kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini o'stirib borish, kam daromadli aholi qatlamini kredit ajratmalar orqali tadbirkorlik bilan shug'ullanishga yordam berish, qishloq joylarda tadbirkorlar safini kengaytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash kabi maqsadlarga erishish natijasidir.

Bankning kreditlash jarayoni bu mijoz bankka ariza bilan murojaat etgan kun va ular orasida kredit shartnomasi imzolangan davrdan boshlab, to olingan ssudani so'ndirishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladigan jarayondir. Kreditlash jarayoning boshlanishi mijoz va bank o'rtasida kredit munosabatlarining o'rnatilganlagini bildiradi. Ushbu jarayonda bank qarz oluvchidan istalgan hujjatni talab qilish huquqiga va ssuda berishdan avval, qarz oluvchining moliyaviy holatini batafsil o'rganib chiqib, uni kreditga qobil deb topgachgina unga ssuda berishi va ssuda so'ndirilishiga qadar uni doimiy monitoring qilib borishi zarur. Kreditlash jarayonining xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, kreditlash jarayonida kredit siyosati talablaridan kelib chiqib, mijozning moliyaviy holatini aniq va ishonarli tahlil etilish va monitoringni to'g'ri tashkil qilish samarali natijalarga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40-moddasiga ko‘ra, tijorat banklari yuridik shaxs bo‘lib, ularning asosiy maqsadi foyda olishdir. Faqat etarli miqdorda foyda oladigan bankgina o‘z aksiyadorlariga dividend to‘lashga, sarmoyani ko‘paytirishga, faoliyat ko‘lamini kengaytirishga, mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini ko‘paytirishga, filiallar tarmog‘ini kengaytirish bilan birga bozorda o‘z mavqeyini ko‘tarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Banklar aholidan omonatlarni jalb qilib, o‘zi tavakkal qilib riskni o‘z bo‘yniga olgan holda jalb qilingan mablag‘larni kredit va investitsiya amaliyotlariga yo‘naltiradi. Fuqarolik kodeksining 765 va 785-moddalariga hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 39-moddasiga asosan banklar jalb qilingan omonat va boshqa mablag‘larning to‘laligicha saqlanishini va o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlashlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, farmoni bank tizimining boshqarish mexanizmlarining xar bir elementini o‘zaro bog‘liq xolda o‘rganish va tahlil etish orqali mavjud muammolarni echimini topish va ularni o‘z vaqtida bartaraf etishni taqozo etadi. Hozirgi kunda bank aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi 80 foizga, kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 95 foizga, xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi 55 foizga yaqin bo‘lishi kredit riskining darajasi yuqoriligidan hamda u to‘g‘risida ma‘lumotlar tez va sifatli shakllanish zarurligidan dalolat beradi.

Kredit liniyasi bir yildan oshmagan har qanday muddatga to‘lov hujjatlarini to‘lash uchun beriladi, u qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan bo‘lishi mumkin. Bunda limit tugagandan so‘ng bank va qarzdor o‘rtasidagi munosabat o‘z payoniga etadi. Ushbu berilgan ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki kredit liniyasida qarz berish muddatlari turlicha T.Kosterinaning fikricha, kredit liniyasi qisqa muddatga ochiladi, O.Lavrushinning fikricha muddat ahamiyatga ega emas bo‘lib, asosiy e‘tibor kreditning maqsimal miqdoriga karatiladi. Bulardan xulosa qilgan holda xalqaro kredit liniyasiga quyidagicha ta‘rif bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi: xalqaro kredit liniyasi xalqaro moliya institutlari tomonidan qarz oluvchilarga

ma'lum bir muddatga kredit limiti doirasida kredit berish majburiyatini anglatadi. Davom ettiriladigan va ettirilmaydigan kredit liniyalari o'zaro farqlanadi. Davom ettirilmaydigan kredit liniyasi ochilib ssuda berilgan va qaytarilgandan keyin mijoz va bank o'rtasidagi aloqalar tugatiladi. Davomlashtiriladigan kredit liniyasida kredit belgilangan limit asosida avtomatik ravishda beriladi va qaytariladi. Agar, bank tomonidan mijozga kredit liniyasi ma'lum tovarlarga bir shartnoma bo'yicha bir yil ichida pul to'lash uchun ochilgan bo'lsa, kredit liniyasi maqsadli bo'ladi.

2022/2023 o'quv yilida shu vaqtgacha tijorat banklari 27 897 nafar talabaga 317 mlrd so'mdan ziyod imtiyozli kredit ajratdi. Markaziy bank boshqarma boshlig'i o'rinbosari Shohruh Egamnazarov "Xalqaro press-klub" ko'rsatuvida kredit olish tizimi haqida aytib o'tdi.

Uning so'zlariga ko'ra, berilgan kreditning 242 mlrd so'mini (76%) ayollar olgan. Ma'lumot uchun, prezident qaroriga ko'ra, oliy hamda o'rta maxsus va professional ta'limda tahsil oluvchi xotin-qizlar 7 yilga 14 foizlik ta'lim krediti olishi mumkin. Bunda foiz stavkalarini Moliya vazirligining jamg'armasi qoplab beradi. Xotin-qizlar esa asosiy qarzni o'qishni tamomlagach, 7 yil davomida to'laydi.

Ta'lim kreditini olish uchun uch tomonlama: talaba, OTM va bank o'rtasida shartnoma tuziladi. Pul ko'chirish yo'li orqali OTMning hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

2022-yil 18-iyuldagi Prezident qaroriga (<https://lex.uz/docs/6116203>) ko'ra, talabalarga ta'lim krediti berish bo'yicha bir qator yaxshi o'zgarishlar joriy etildi. Jumladan, xotin-qizlarga foizsiz ta'lim krediti beriladigan bo'ldi. Bundan tashqari o'tgan yildan berish boshlangan odatiy ta'lim krediti bo'yicha ham 3 ta asosiy o'zgarish bor: endi sirtqi va kechki ta'lim uchun ham beriladi (ilgari faqat kunduzgi ta'limga edi); endi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari (texnikum, kasb-hunar kolleji va h.k.) uchun ham olish mumkin (ilgari faqat oliy ta'limga edi. Endi qarindosh bo'lmagan uchinchi shaxslarni ham birgalikda qarz oluvchi (kafil) qilish mumkin (ilgari faqat oila a'zolari yoki vasiysiga ruxsat berilgandi). Asosiy stavka o'zgarsa: agar Markaziy bankning asosiy stavkasi pasaysa, unda kredit foizi ham

pasayadi. Agar asosiy stavka ko'tarilsa, unda kredit foizi o'zgarmaydi (ya'ni ko'tarilmaydi). Kimlarga beriladi: kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakliga bakalavr yoki magistrga to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan yoki o'qishini ko'chirgan talabalarga beriladi. super-kontrakt uchun yoki ikkinchi mutaxassislik, masofaviy, maxsus sirtqi shakllar uchun ta'lim krediti berilmaydi. Qaysi OTMLar uchun: ta'lim krediti O'zbekistondagi davlat, nodavlat yoki xorijiy Oliy o'rta maxsus; professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari yoki qo'shma dasturda o'qiydigan talabalarga beriladi. Xorijda joylashgan OTMLarda o'qish uchun ta'lim krediti berilmaydi. Kafillik: kredit oluvchining doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari (ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, eri yoki xotini) yoki boshqa uchinchi shaxslar ta'lim krediti shartnomasida birgalikda kredit oluvchi sifatida qatnashishlari mumkin. Fuqarolik: ta'lim krediti faqat O'zbekiston fuqarolari uchun beriladi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga banklarning o'zlari tijoriy shartlarda kredit berishi mumkin. hujjatlar: bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- a) ariza;
- b) talaba va ta'lim muassasasi o'rtasidagi shartnoma (kontrakt);
- v) kredit qaytarilishining ta'minoti bo'yicha hujjat. Bunda "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kirgan oilalarning farzandlariga ajratiladigan ta'lim krediti bo'yicha garov va kafillik talab etilmaydi;
- g) "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma (agar bo'lsa);
- d) bankning ichki hujjatlarida (siyosatida) belgilangan boshqa hujjatlar, shu jumladan, birgalikda kredit oluvchiga tegishli ma'lumot va hujjatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi qonun, 30-modda. <https://lex.uz/acts/-4590452>
2. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. Jumaniyazov, I. T. (2022). O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. Science and Education, 3(5), 1637-1645.
4. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 222 b.

5. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.

6. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. Science and Education, 4(6), 881–887.

7. Azizov U. Karaliyev T. va boshqalar “Bank ishi” darslik , “Fan va texnologiya”. Toshkent - 2016. 68-bet.

8. Inomjon J., Sarvar A. SUVEREN FONDLAR FAOLIYATI VA ULARNING MOLIYAVIY MABLAG 'LARINI SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 35. – №. 4. – C. 102-108.

9. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023

10. I. T. Jumaniyazov 2021. The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 25, 2 (Mar. 2021), 109–116.

11. Jumaniyozov, I. "ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS." International Finance and Accounting 2020.5 (2020): 1.

12. I. T. Jumaniyazov, . “Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds”. The American Journal of Management and Economics Innovations, vol. 3, no. 05, May 2021, pp. 30-37.